

**UZUMNING TOIFI NAVINING UN SHUDRING KASALLIGINING KELIB
CHIQUISH SABABLARI VA OLDINI OLISH**

Normurodov Muhiddin Mamasharif o'g'li

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti qoshidagi
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xafsizligi instituti "O'simliklar himoyasi"*

(usullar bo'yicha) magistranti

muhiddinnormurodov81@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada uzumning toifi navining un shudring kasalligining kelib chiqish sabablari va oldini olish, Funtisidlar haqida, kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar zamburug'lar asosan havodan shamol, yomg'ir, hasharotlar odamlar yordamida tarqatilishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

KALIT SOZ'LAR: *Uncinula necator, zamburug', Oidium, Spor, fungitsidlar, Xlorokis.*

АННОТАЦИЯ: *В статье представлена информация о причинах возникновения и профилактике мучнистой росы сортов винограда, о фунгицидах, о распространении болезнетворных бактерий и грибов преимущественно из воздуха ветром, дождем и насекомыми с помощью человека.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Uncinula necator, гриб, Оидиум, Спора, фунгициды, Хлорокис.*

ABSTRACT: *This article provides information on the causes and prevention of powdery mildew of grape varieties, about fungicides, about the spread of disease-causing bacteria and fungi mainly from the air by wind, rain, and insects with the help of people.*

KEY WORDS: *Uncinula necator, fungus, Oidium, Spore, fungicides, Chlorokis.*

KIRISH

“Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g'ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlarini bilan bevosita bog'lanib ketgan” deb ta'kidlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev.

Respublikamiz tokzorlarida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bu oidium kasalligi hisoblanadi. Bu kasallikni *Uncinula necator* zamburug'i qo'zg'atadi. Kasallik dastlab baxorda (may oyida) paydo bo'lib, xavo xarorati 20-25°S, namlik 60-80% bo'lganda kasallik juda tez tarqaladi. Zamburug'ning rivojlanishi uchun namlik uncha ahamiyatga ega emas, chunki namlik 25% dan yuqori bo'lganda kasallik rivojlana boshlaydi.

ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

Un-shudring bilan tokning hamma yerustki a'zolari: asosan barglari, shuningdek yosh yog'ochlanmagan novdalari va mevalari kasallanadi. Kasallikning dastlabki belgilari barglarda va yosh novdalarda paydo bo'ladi. Odatda barglarda kichikroq yolg'iz dog'lar xosil bo'lib, bir-biri bilan qo'shilib ketadi va barg plastinkasini qoplab oladi. Barg yuzasida oq g'ubor shakllanadi. Kuchli zararlangan barglar bujmayib, qurib qoladi. Vaqt o'tishi bilan g'ubor bargning xar ikkala tomonini qoplab oladi. G'ubor dastlab oq unimon bo'lib, vaqt o'tishi bilan kul-rant tusga kiradi. Xuddi barg yuzasiga kul sepilganga o'xshaydi.

Oidium qayerdan keladi?

Sporlar havoda yoki hududdagi boshqa o'simliklarda mavjud. Quruq, issiq havoda, qo'ziqorin yashirin shaklda qoladi, va uzumga tushsa ham, meva va barglarga ta'sir qilmaydi.

Namlik va namlik bilan sporlar faollashadi va birinchi navbatda barglar yuzasida, keyin esa tokda tarqala boshlaydi. Agar bu kasallik o'z vaqtida bartaraf etilmasa, u mevalarga ham ta'sir qiladi.



NATIJA VA MUHOKAMA

Tokning oidium kasalligining oldini olish va davolash uchun oltingugurt kukuni o'rniga **Xlorokis** funtisidini qo'llash tavsiya etilgan.

Funtisidlar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.


O'simliklarning kasalliklariga qarshi qo'llaniladigan preparatlarga *fungitsidlar* deb ataladi. Ma'lumki kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar zamburug'lar asosan havodan shamol, yomg'ir, hasharotlar odamlar yordamida tarqaladi. O'simlikka esa ustitsa, og'izcha, chechevichka, ko'zcha va mexaniq jarohatlar o'rnidan o'tadi. Ayrim parazitlar epidermesdan o'tishi mumkin. Misol uchun un shudringi kasalliklari qo'zg'atuvchilari. Organizmga tushishi bilan sporalari ko'karib epidermani yirtib to'qimaga kiradi va oziqlana boshlaydi

Qarshi kurashda fungitsidlarni tanlash parazitlarning rivojlanish xususiyatlari, o'simliklarning kasallanish darajalari inobatga olinishi kerak.

Ko'p yillik ekinlarni etishtirganda (mevali, rezavor, tok) yer ustini infeksiya, tuproqdagi o'simlik qoldiqlaridagi infeksiyalarini yo'qotishga qaratilishi kerak. Ayniqsa qishlab qoluvchi davrlarini yo'qotish o'simlikni sog'lom, baquvvat kasallikka chalinmay o'sib rivojlanishini taminlaydi.

Fungitsidlarni Qo'llash muddatlarini to'g'ri aniqlash katta ahamiyatga ega, fungitsidlarning samaradorligi yuzaga to'g'ri, tekis taqsimlanishiga, barglar ustki, ostki tomonidan bir tekisda ishlanganligiga, tez oqib ketmasligiga bog'liq.

Xlorokis funtisidini ayniqsa *Oidium* uzumning qo'tir va boshqa dog' kasalliklariga yaxshi ta'sir etadi, chunki bu zamburug'larining mitseliyalari, tanalari to'qimalari ichida hujayralarda rivojlanganligi tufayli kontakt fungitsidlar bilan o'ldirish qiyin, shuning uchun ham qarshi kurashda oldini olish katta ahamiyatga ega.



pishish oldidan xlorokis med qo'llansa yaxshi chunki, Bordo suyuqligidan ko'ra fitotoksikligi kam. Mis birikmalari turg'un, ular tashqi muhitda aylanib (sirKulyasiya) o'simlik, tuproq, suv havzalarida yig'ilishi mumkin. Suv havzalarida organik moddalarning mineralizatsiya jarayonlariga salbiy ta'sir etadi chunki zamburug', bakteriyalarga fungitsidlik, bakteritsidlik ta'sir etadi. 0,2-0,5 g quvvatda organizmda qayt (qushish) ni olib keladi, 1-2 g esa o'limga olib kelishi mumkin. Mis-odam organizmi, hayvonlar uchun zaharlidir. Oshqozon ichak sistemasini kuchli yallig'lantiradi, yuqori nafas yullarini, terini tekkan joylarini yaralaydi, qo'tir, temiratkiga olib keladi.

XULOSA

Agar o'z vaqtida yo'q qilish choralari ko'rilmasa, quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- pedunkullarning yo'qolishi tufayli hosilning umumiy hajmining pasayishi;
- uzum va barglarning nobud bo'lishi;
- rezavorlarning yo'qolishi.

Hali ham qolgan mevalarni pishirishda va yangi holda ishlatish mumkin emas, chunki ular ta'mini yo'qotadi va sog'liq uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Tashqi ko'rinish belgilari

Rivojlanish belgilari:

1. Sekin o'sish.
2. Barglarni ichkariga bukish.
3. Ochilmagan barglarda zararkunandalar yoki o'rgimchak to'ri yo'q, lekin jigarrang dog'lar va oq yoki kulrang gul bor.

Oidium uzumni nafaqat yozning boshida, balki keyinchalik - gullash va meva hosil qilish davrida ham yuqtirishi mumkin.

Bunday hollarda gullar tezda quriydi va jigarrang dog'lar rezavorlarga tarqaladi.

Agrotexnik tadbirlar o'tkazish bilan bir qatorda toklarga tuyilgan oltingugurt bilan ishlov berish ham yaxshi samara beradi. Toklarda birinchi marotaba erta bahorda novdalar bog'lanib, 3–4 tadan chinbarg hosil bo'lganda, 8–10 kundan keyin – ikkinchi marotaba, tok gullab bo'lgandan keyin 2 hafta o'tgach, uchinchi marotaba oltingugurt changlatiladi. Uzumzorlarni yoshiga va qalinligiga qarab 10 sotixga 2 kilogrammdan 3,5–4 kilogrammgacha oltingugurt sarflanadi. Oltingugurt kukuni bo'lmasa 1 foizli ho'llanuvchi oltingugurt purkaladi (10 litr suvga 100 g). Topaz (10 l suvga 5 g) yoki Vektra (10 litr suvga 3 g) preparatlarini ham qo'llasa bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Kimsanboev X.X., Yo'ldoshev A. va boshqalar - O'simliklarni kimyoviy himoya qilish. Darslik - T.: "O'qituvchi", 1997.-280 b.
2. Xo'jaev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Darslik -Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.-396 b.
3. Xasanov B.O. va boshqalar " G'o'zani zararkunanda kasallik va begona o'tlardan himoya qilish".Darslik- "Universitet" nashriyoti, Toshkent. 2002.-379 b.
4. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxati. "O'simliklar himoyasi va karantini" jurnali ilovasi. Toshkent, 2013.-335 b.